



BOLALAR ADABIYOTIDAGI ATAMALAR TIZIMIDA METAFORA VA IBORALARNING KOGNITIV TABIATI

Sidiqova Shahrizoda

*Buxoro davlat universiteti filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi
3-bosqich talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalar adabiyotida qo'llaniladigan metaforalar va iboralarning kognitiv tabiati o'rganiladi. Bolalar nutqi va badiiy tafakkurining shakllanishida metaforik ifodalar muhim vosita bo'lib, ular orqali bola murakkab tushunchalarni sodda, obrazli ko'rinishda idrok qiladi. Metaforalar bolalarga dunyoni "harakat", "yorug'lik", "insoniy fazilat", "tabiat hodisalari" kabi tanish konseptlar orqali tushunishga yordam berishi aniqlangan. Iboraviy birliklar esa bolada tafakkur, axloqiy mezonlar va emotsional idrokning shakllanishiga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari bolalar adabiyotidagi metafora va iboralarning kognitiv funksiyasi — bolaning konseptual tafakkurini rivojlantirish, abstrakt tushunchalarni konkretlashtirish va dunyoqarashni kengaytirish jarayonida asosiy rol o'ynashini ko'rsatadi. Turli adabiyotlardan olingan nazariy va amaliy misollar maqolani yanada boyitib, mavzuning ilmiy-uslubiy qamrovini kengaytiradi.

Kalit so'zlar: bolalar adabiyoti, metafora, iboraviy birlik, kognitiv tabiat, tafakkur

COGNITIVE NATURE OF METAPHORS AND IDIOMS IN THE TERMINOLOGICAL SYSTEM OF CHILDREN'S LITERATURE

Sidiqova Shahrizoda

*Bukhara State University, Faculty of Philology and Language Teaching: Uzbek
Language Program 3rd-year student*

Abstract. This article examines the cognitive nature of metaphors and idiomatic expressions used in children's literature. Metaphorical expressions serve as an important tool in the development of children's speech and artistic thinking, enabling them to perceive complex concepts in a simple and figurative form. It has been identified that metaphors help children understand the world through familiar concepts such as "movement," "light," "human qualities," and "natural phenomena." Idiomatic units contribute to the formation of children's thinking, moral criteria, and emotional perception. The research results show that the cognitive function of metaphors and idioms in children's literature plays a key role in developing children's conceptual thinking, concretizing abstract notions, and broadening their worldview. Theoretical and practical examples from various literary sources further enrich the article and expand the scientific-methodological scope of the topic.



Keywords: *children's literature, metaphor, idiomatic unit, cognitive nature, thinking.*

КОГНИТИВНАЯ ПРИРОДА МЕТАФОР И ВЫРАЖЕНИЙ В СИСТЕМЕ ТЕРМИНОВ ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Шахризода Сидикова

*Бухарский государственный университет, факультет филологии и преподавания
языков, направление «узбекский язык», студентка 3 курса*

АННОТАЦИЯ. *В данной статье исследуется когнитивная природа метафор и выражений, используемых в детской литературе. Метафорические выражения являются важным инструментом в формировании детской речи и художественного мышления, позволяя ребёнку воспринимать сложные понятия в простой и образной форме. Метафоры помогают детям понимать мир через знакомые концепты, такие как «движение», «свет», «человеческие качества», «явления природы». Выражения и идиоматические единицы способствуют развитию мышления, формированию моральных ориентиров и эмоционального восприятия ребёнка. Результаты исследования показывают, что когнитивная функция метафор и выражений в детской литературе играет ключевую роль в развитии концептуального мышления ребёнка, конкретизации абстрактных понятий и расширении кругозора. Теоретические и практические примеры из различных произведений обогащают статью и расширяют научно-методический охват темы.*

«Ключевые слова: *детская литература, метафора, идиоматическое выражение, когнитивная природа, мышление.»*

Kirish.



Bolalar adabiyotining o'ziga xosligi shundaki, unda atamalar, metaforalar va iboralar bolalar tafakkuriga mos ravishda sodda, obrazli va tez qabul qilinadigan shaklda qo'llanadi. Metafora va iboralar nafaqat badiiy bezak vositasi, balki bolaning dunyoni anglash jarayonini shakllantiruvchi kognitiv mexanizmlar sifatida ham muhimdir. Ular orqali bola abstrakt tushunchalarni konkret tasvirlar vositasida idrok etadi. Metafora – bu o'xshashlik asosida ma'noni bir obyektдан boshqasiga o'tkazishga imkon beradigan ifoda vositasidir. Metafora ko'pincha murakkab tushunchalar va hodisalarni soddalashtirish, xayoliy tasavvurlarni yaratish va hissiy bo'yolarni oshirishdan iborat. Metafora eng murakkab va ko'p qirrali lisoniy hodisalardan biridir. U nafaqat nutqni bezaydi, balki muhim kognitiv va pragmatik vazifalarni ham bajaradi. Kognitiv vazifa tushunarsiz yoki tushuntirish qiyin bo'lgan nomlar o'rtasidagi muvozanatni tiklashi bilan bog'liq. Metafora nafaqat lug'atni to'ldirish usuli, balki ma'nolarning metaforik uzatilishi lisoniy semantikani rivojlantirishning eng muhim usuli hisoblanadi.[4] Yangi yuz yillikda tilshunoslik sohasida yuzaga kelgan tadqiqot yo'nalishlari avvaldan an'anaviy tilshunoslik doirasida tadqiq



etilgan til hodisalari va til birliklarini boshqa nuqtai nazar va mezonlar asosida o'rganishga keng yo'l ochdi. Ya'ni, metafora va iboralarni tushunish faqat til qobiliyati emas, balki bolalarning kognitiv rivojlanishi, ularning psixologik va ijtimoiy tafakkur salohiyatiga ham bog'liq. Bu - bolalar adabiyotidagi metafora va iboralarni oddiy «bezak» emas, balki kognitiv va psixologik rivojlanish vositasi deb ko'rish mumkinligini ko'rsatadi. Metafora va iboralar — tilning faqat badiiy “bezak”i emas, balki ontologik va kognitiv vosita hisoblanadi: ular orqali abstrakt, murakkab tushunchalar konkret, bolalar tushunadigan — tanish obyekt yoki tajriba domenlariga “ko'chiriladi” va murakkab tushunchalar sodda fikrlashda qabul qilinadi.[5]

Bolalar adabiyotida — ayniqsa ertaklar, she'rlar, hikoyalar tilida — metafora va idiomalar bolalarning kognitiv rivojlanishi, til bilan bog'liq tushunchalarni shakllantirish, abstrakt fikrlash, tasavvur va kreativlikni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.[1]

O'zbek xalq maqollaridan misollar:

1. “Ko'ngli tog'dek ko'tarildi.” (Zumrad va Qimmat ertagi)

Kognitiv tabiati: “Tog'” — barqaror, ulug' va quvonchning ko'rinishidir. Bola quvonchni baland obyekt bilan bog'lash orqali fazoviy tasavvuri shakllanadi.

2. Umumiy bolalar ertaklari she'riy tilda. Misol: “Quyosh kulib boqadi”

Kognitiv tabiati: Bola tabiat va atrof-muhitga insoniy fazilatlarni bog'laydi; empatiya va tasavvur kengayadi.

3. “Ko'nglim yorishib ketdi.” (yorug'lik – kayfiyat)[2]

Kognitiv tabiati: his-tuyg'u, ruhiy holat yorug'lik bilan ifodalanadi. Bola ichki holatni yorug'lik orqali anglaydi; psixologik tushunchalarni sodda, sezgir shaklda idrok etadi.

Bu modellarga asoslanganda, bolaga abstrakt tushunchalarni sodda, tanish domenda harakat, yorug'lik, odam orqali tushuntirish mumkin. Ko'pgina iboralarda personifikatsiya, fazoviy yoki jismoniy tasvirlar ishlatiladi. Bu bolaga matnni oson tushunishga yordam beradi. Bolalar adabiyotidagi iboralar hissiyot, axloq, tarbiya va tabiat tushunchalarini bolaga sodda va obrazli shaklda yetkazadi. Bolalar hikoya, ertak, she'r va darslik matnlarida iboralar qahramon xarakterini, his-tuyg'ularini, vaziyatni aniq va sodda ko'rsatadi.[6] Masalan, o'quvchi “oyog'ini yerga qo'ymay yurdi” iborasini o'qiganda, bola qahramon tez harakat qilayotganini tushunadi — badiiy tasvir va kognitiv tushunchani birlashtiradi.

Bolalar ertagidan misollar:

1. “Tilini tishladi” (sir saqlash, gapirmaslik)

Kognitiv tabiati: bola hushyorlikni idrok qiladi

2. “Ko'ngli ochiq” (mehribonlik va ochiq fikr)

Kognitiv tabiati: bolada empatiya va ijobiy axloqiy fazilatni rivojlantiradi

Hamza Imonberdievning "Qo'li ochiq bola" sherida esa kichkintoylar orasida tez-tez uchrab turadigan va ular olamining bezagi bo'lgan xususiyatlar topqirlik bilan tasvirlanadi. Qo'lidagi nokni istemol qilayotgan bolani ko'rgan sherigi unga nima deyishi mumkin? She'rda mana shunday holatdagi bolakaylar ruhiyati mahorat bilan chiziladi:

-Do'sting Eson





G'irt qizg'anchiq.
Sening esa,
Qo'ling ochiq.
To'g'rimi?
- Ha.
-Tilingga bol.
Kel nokimning
Yarmini ol ("G'aroyibkent hangomalari", 50).[3]

Xulosa.

Bolalarning lug'at boyligi ularning saviyasini belgilovchi asosiy mezon. Ular ma'nan ulg'aygani sari voqelikni o'zlashirish imkoniyatlari, til boyliklari orta boradi. Jamiyat taraqqiyoti bu tamoyilni yanada orttiradi. Yosh avlodning did-saviyasi, tafakkuri o'sishida so'z boyligi, ularning ma'no qirralaridan kengroq foydalanish muhim ahamiyatga ega. Zotan, bolalar adabiyotining tili endilikda shu jihatdan rang-baranglik kasb etmoqda. Metafora va iboralar bolalar adabiyotida nafaqat badiiylik vositasi sifatida, balki kognitiv mexanizm sifatida ham xizmat qiladi: ular bolaning til sezgisi, obrazli fikr yuritishi, mantiqiy bog'liqliklarni ko'ra olish qobiliyatini rivojlantiradi. Demak, bolalar adabiyotidagi metaforik atamalar va iboralar bola tafakkurining shakllanishi, emotsional tarbiyasi va nutq boyligini kengaytirishda beqiyos ahamiyatga ega.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev B. Kognitiv tilshunoslikka kirish. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019. —B. 6-7
2. O'zbek xalq og'zaki ijodi: ertaklar, maqollar, topishmoqlar to'plami. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. -B. 20-23
3. Jamilova B. Bolalar adabiyotida zamonaviylik. — Buxoro: "Bukhara Hamd Print", 2020. — 269 b.
4. Авагани Ю.Ю. Вопросы фразеологии. С., 1977. —B.12-17
5. Mahmudov, N., Madvaliev, A. O'zbek tili frazeologiyasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2002. —B.31-47
6. Jamilova B. O'zbek bolalar adabiyoti. O'quv qo'llanma. T.:Innovatsiya-Ziyo. 2021. - 222 b.

